



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**G‘afurov MirzoUlug‘bek Majidovich**

*Farg‘ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga  
o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi,  
telefon: (998) 99-803-30-60*

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MAHORAT DARSLARINING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv sifatida kirib kelgan zamonaviy tendensiya – Master Class, ya’ni, mahorat darslarini keng joriy etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, unda mahorat darslarini tashkil etish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish yo‘llari aniq misollar orqali bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsion faoliyat, innovatsion kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, ko‘nikma, mahorat darsi, malaka, metodika, pedagog, o‘qituvchi, mahoratli o‘qituvchi.

### ЗНАЧЕНИЕ МАСТЕР КЛАССОВ В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется широкому внедрению Мастер-класса – современной тенденции, вошедшей в образовательный процесс как инновационный подход. Также на конкретных примерах описаны методы развития инновационной деятельности учителей начальных классов посредством организации мастер-классов.

**Ключевые слова:** инновационная деятельность, инновационная компетентность, профессиональная компетентность, компетенция, умение, квалификация, мастер-класс, методика, педагог, учитель, опытный учитель.

## THE IMPORTANCE OF SKILL LESSONS IN FORMING INNOVATIVE ACTIVITY IN PRIMARY EDUCATION

**Annotation:** This article explores the widespread introduction of the Master Class – a modern trend that is also developing in the educational process as an innovative approach. Methods for developing the innovative activities of primary school teachers through the organization of master classes are also described using specific examples.

**Key words:** innovative activity, innovative competence, professional competence, competence, skill, qualification, master class, methodology, pedagog, teacher, experienced teacher.

### KIRISH

Ta'lim jarayonida ilg'or innovatsion yondashuvlarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan birdir. Ta'limga yangi tendensiya - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mahorat darslari kirib keldi. "Master-klass", ya'ni mahorat darslari o'z sohasining yetakchi mutaxassislari tomonidan olib boriladi va fandan sportgacha bo'lgan keng doiradagi tarmoqlarni qamrab oladi. Mahorat darslari iqtidorli bolalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatining bir shaklidir. Ularning asosiy maqsadi o'qituvchilarning muayyan soha bo'yicha malakasini oshirishga ko'maklashish, ularga zarur bilim va tajribalar berish hamda ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagog kadrlar uchun mahorat darslari tushunchasi mutlaqo yangi emas. So'nggi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tashkil etilayotgan mahorat darslari soni ortib bormoqda. Jahon tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada ba'zi maktablar matematika, ingliz tili va hatto falsafa kabi fanlar bo'yicha mahorat darslarini taklif qilishadi. Ushbu darslar o'quvchilardagi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish va ularni yangicha fikrashga undashga mo'ljallangan.

O'zbekistonda ham ushbu tamoyilga asoslangan holda "Master Class"lar keng qamrovda va aniq maqsad asosida olib borilmoqda. Ayniqsa, Muslimov N.A., Azizzodjayeva N.N., Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. va To'rayev A.B. kabi olimlarning asarlari mustaqil ta'lim va mahorat darslarini tashkil etish sohasidagi tadqiqotlarga sezilarli hissa qo'shdi. Muslimov N.A., Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H., Ochilov M., Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U., Azizzodjayeva N.N. va Xoliqu A. kabi o'zbek olimlari tomonidan yaratilgan ilmy-metodik adabiyottlarda mahorat darslarining ahamiyati hamda ular bilan bog'liq jarayonlarni o'rGANISHNING ilmiy-metodik asoslari batafsil bayon qilingan. Ushbu olimlarimiz tomonidan yaratilgan asaralar va ilmiy yangiliklar maktablarda

o‘qitish samaradorligini yaxshilash, ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish, ta’lim tizimiga turli o‘qitish metodikalarinini joriy etishga imkonini berdi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi (MDH) mamlakatlari olimlari, jumladan Baydenko V., Veselova V.G., Grishina, I.V., Potashnik M.M. va Tretyakov P.I. lar ham o‘zlarining asarlari bilan ta’lim tizimi va jarayonlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Bu olimlar tomonidan yaratilgan adabiyotlarda o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatlarini ro’yobga chiqarish va ta’limdagi fanlararo integratsiyani amalga oshirish, malaka oshirish tizimini maktab muhitiga moslashtirish masalalari keng yoritilgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

So‘nggi yillarda boshlang‘ich ta’limda amaliy mashg‘ulotlar ko‘paymoqda. Buning sababi shundaki, aynan shu yoshda bolalar yangi bilim va tajribaga intiluvchan bo‘ladilar, ular o‘rganishga intiladilar va ma’lumotlarni tez va oson o‘zlashtira oladilar. Qolaversa, aynan shu yoshda kelajakdag‘i barcha bilimlar uchun asoslar yaratiladi. Bolalarning nima maqsadda o‘qiyotganini tushunishi, olgan bilimlarining amaliy qo‘llanilishini ko‘rishi va undan hayotda foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasiga master-klasslar yordamida erishish mumkin. Mahorat darslarining asosiy afzalligi shundaki, ular bolalarga ularni eng qiziqtirgan mavzuni chuqur o‘rganish imkonini beradi. Maktabda bolalarga juda ko‘p turli fanlar o‘rgatiladi, lekin ularning har birini batafsil o‘rganish uchun ularning vaqtłari yetarli emas. Ular ko‘pincha nimani va nima uchun o‘rganayotganlarini tushunmaydilar va natijada o‘rganishga qiziqishlarini yo‘qotadilar. Mahorat darslari bolalarga fanlarni chuqur o‘rganish, ular haqida ko‘proq ma’lumot olish va ularning amaliy qo‘llanilishini ko‘rish imkoniyatini beradi. Natijada ushbu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olishga motivatsiya ortib boradi.

Mahorat darslarining yana bir afzalligi shundaki, ular bolalarga o‘z sohasining yetuk mutaxassislari bilan ishslash imkonini beradi. Bu esa bolalarda o‘z ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlanirishga, ularni amalda qo‘llashga yordam beradi. Ushbu darslar bolalarning ijodkorligi va tasavvurini rivojlanirishga yordam beradi. Maktabda bolalarga ko‘pincha ma’lum bir shaklda fikr yuritishga, muammolarni qandaydir tarzda hal qilishga va muayyan usullarda ishlarni bajarishga o‘rgatiladi. Natijada ular ko‘pincha o‘z ijodiy qobiliyatları va tasavvurlarini rivojlanira olmaydilar. Mahorat darslari esa bolalarga boshqacha fikr yuritish, muammolarni hal qilish tafakkuri va harakatlarida yangicha bo‘lishga yordam beradi. Bu ularning ijodkorligi va tasavvuri rivojlanirishiga, yangi g‘oyalar va yechimlarni topishiga ko‘maklashadi. Faol tarzda olib borilgan eksperimentlar shuni yaqqol isbotladiki, ushbu darslar o‘quvchilarni rag‘batlantirishga imkon beradi. Bolalarga o‘zlari tanlagan fan bo‘yicha professional mutaxassislardan o‘rganish imkoniyatini berish orqali biz ularni yanada ko‘proq o‘z

ustida ishlashga va yuqori maqsadlarga erishishga undashimiz mumkin. Mahorat darslari ham bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshirishishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar mutaxassislar tomonidan maqtovga sazovor bo‘lsa, ular o‘z qobiliyatlarini ijobjiy his qiladilar va kelajakda muvaffaqiyatga erishish ishonchi paydo bo‘ladi.

Mahorat darslari qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida, talab darajasidagi zamonaviy moddiy-texnik ta’minoti mavjud bo‘lgan umumiyligi o‘rtalim tashkilotlarida tashkil etiladi. Mahorat darslarini, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida ham tashkil etish mumkin.

Malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mahorat darslarini tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

- muayyan muammo yoki mavzu bo‘yicha tajribali, mahoratli o‘qituvchining ish tajribasini ommalashtirish;

- tajribali, mahoratli o‘qituvchi tomonidan izchil harakatlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri va izohli namoyish etilishi orqali kasbiy-pedagogik faoliyatda o‘qitishning innovatsion shakl, metod va vositalaridan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish;

- malakali, mahoratli o‘qituvchining ilmiy va metodik yondashuvlarini belgilangan muammoni hal etish usullari bilan o‘zaro muvofiqlashtirish;

- yuqori mahoratli o‘qituvchining o‘zining kasbiy malakalarini hamkasblariga o‘rgatishi.

Shuningdek, mahorat darslarini tashkil etish natijasida quyidagi mahsulotlar yaratilishi mumkin:

- boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishga doir o‘quv resurlari (namunaviy dars ishlanmasi, dars taqdimoti, multimedia ilovasi, video audio matni);

- sinflar kesimida nazorat ishlari variantlari;

- sinflar kesimida testlar to‘plami;

- boshlang‘ich ta’lim fanlariga doir qo‘srimcha masalalar to‘plami;

- keyslar, loyiha ishlari;

- boshlang‘ich ta’lim fanlariga doir to‘garak dasturlari;

- to‘garak materiallari to‘plamlari;

- ko‘rgazmali quroq maketlari;

- boshlang‘ich ta’lim fanlariga doir plakatlar to‘plami;

- ilg‘or boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ish tajribasini aks ettiruvchi taqdimot; boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy ishlari mahsuli (uslubiy qo‘llanmayoki ko‘rsatma, mashg‘ulotlar uchun tarqatma materiallari);

- pedagogik adabiyot va manbaalar kartotekasi;

- ilg‘or ish uslublarini aks ettiruvchi taqdimotlar, stendlar, videoroliklar;

- ilmiy maqola va tezislari;

-o‘quv kurslari, uzlusiz kasbiy rivojlantirish kurslari, seminarlar, treninglar dasturlari;

-ijodiy va ommaviy xarakterdagi tadbirlar, kechalar uchun ssenariylar, yo‘riqnomalar, nizomlar, yo‘l xaritalari va boshqalar.

### XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mahorat darslari iqtidorli bolalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv faoliyatining muhim shaklidir. Ular bolalarga o‘zlarini qiziqtirgan mavzuni chuqur o‘rganish, o‘z sohasi mutaxassislari bilan hamkorlik qilish, ijodkorlik va tasavvurlarini rivojlantirish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, uzlusiz kasbiy rivojlantirish jarayonida tashkil etiladigan mahorat darslari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘z bilimlarini izchil boyitib borishga, yangi axborotlarni o‘zlashtirishga, davr talablarini chuqur anglab yetishga, yangi bilimlarni izlab topishga, ularni qayta ishlash va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llay olishga yo‘naltiradi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiruvchi asosiy mexanizmlar bo‘lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnama. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, 272-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. – Toshkent, 2022-yil 17-yanvar, 25-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i. – Toshkent, 2022-yil 20-aprel, 121-son.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.:“Sano standart” nashriyoti, 2015.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyl asoslari. – T.: Fan, 2006.
7. Xamrakulov X.T. Pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda mahorat darslarining o‘rni. – Termiz: “Zamonaviy jamiyatda fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2021. – 1325-1328-b.
8. Xoliqov A. Pedagogil mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011, – 424 b.
9. Мухина С.А., Соловьёва А.А. Современные инновационные технологии обучения. – М.: “Геотар-медиа”, 2008. – 43 с.
10. Губогло З.И. Что такое мастер-класс. Инновационные проекты и программы в образовании, 2009/6. – 54-61-с.